

**NIKOH SHARTNOMASINI SHAKLLANTIRISHDA XORIJIY
DAVLATLAR TAJRIBASINI QO`LLASH**

Dilfuza Matkarimova Odilbekovna

*UrDU akademik litseyi
tarix va huquq fani o`qituvchisi*

Annotatsiya: Har bir davlatni oilani muhofaza qilishda o`ziga xos yo`li mavjud bo`lib bir-biridan farq qiladi. Xorijiy davlatlar oila qonunchiligini o`rgangan holda ularni ilg`or tajribalarini chuqur o`rganib qiyosiy tahlil qilish natijasida milliy qonunchillikka joriy etish orqali oila muhofazasini samarali tizmini yaratish mumkin. Mazkur maqolada aynan shu masala to`g`risida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: nikoh, nikoh shartnomasi, oila, chet el fuqarosi, qonunchillik, xalqaro tajribasi, qonun, tenglik, adolat.

Bugungi kunda oilani muhofaza qilishni samarali tizmini yaratishda jahoning ilg`or davlatlari qonunchiligi va amaliyotni o`rganish, ularni milliy qonunchilgimizga joriy etish orqali oilani har tamonlama muhofaza qilishning kompleks tizmini yaratish mumkin. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan chet el fuqarosi o`rtasidagi nikoh munosabatlarini tartibga solishda xalqaro me`yoriy hujjatlariga tayangan holda milliy qonunchilgimiz shakllanadi. O`zbekiston fuqarosi va chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo`lmagan shaxslar o`rtasidagi nikohni qayd etish agar chet el fuqarosining yoki fuqaroligi bo`lmagan shaxsning O`zbekiston Respublikasida bo`lish vizasi nikoh tuziladigan kunda haqiqiy bo`lsagina amalga oshiriladi. Bunda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo`lmagan shaxsning nikohga kirish haqidagi arizasiga uning shaxsini tasdiqllovchi hujjat nusxasi hamda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo`lmagan shaxsning nikohda turmasligi haqidagi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjat (davlat tilidagi tarjimasi bilan birga) ilova qilinishi lozim¹.

¹ Nikoh: milliy va xorijiy tajriba. Axborot-tahliliy material. – Toshkent, TDYuU nashryoti, 2019 yil. – 72 bet



Nikohni qayd etuvchi organ va nikohni qayd etish asoslari dunyo davlatlarida turlicha hisoblanadi. Jumladan, Italiya, Buyuk Britaniya, Daniya Qirolligi, Ispaniya Qirolligi va Latviya Respublikalarida nikohlanuvchi shaxslar nikohlarini qayd etuvchi organlarida yoki diniy rasm-rusumlarga asosan cherkovlarda qayd qildirishlari mumkin. Buyuk Britaniya, Belgiya Qirolligi, Daniya Qirolligi, Fransiya va Turkiya Respublikalari qonunchiliklarida shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardan tashqari nikohlanuvchi shaxslarning tug'ilganlik haqida guvohnomalarini ham taqdim etilishi lozimligi ko'rsatilgan. Latviya Respublikasi qonunchiliga ko'ra nikohni qayd etish sanasi va nikohni qayd etuvchi muassasa nikohlanuvchi shaxslarning ixtiyoriga asosan tanlanishi mumkin. Mamlakatimizda nikohni qayd etish - FHDYO tomonidan amga oshiriladi. Nikohni qayd etish uchun talablar va kerakli hujjatlar oila kodeksida keltirilgan².

Nikoh qurish yoshi va asoslari jahon mamlakatlarida turlicha hisoblanadi. Nikoh qurish yoshi bo'yicha boshqa mamlakatlarning qonunchiligini tahlil etadigan bo'lsak, bu ko'rsatgichlar quyidagicha Buyuk Britaniyada nikoh yoshi 16 yosh qilib, Fransiya va Yaponiyada nikoh yoshi ayollar uchun 16 yosh, erkaklar uchun 18 yosh qilib, Italiya, Belgiya Qirolligi, Germaniya Federativ Respublikasi va Latviya Respublikalarida nikohlanuvchi shaxslarning har ikkalasining nikoh yoshi 18 yosh qilib belgilangan. Xitoy Xalq Respublikasining qonunchiligi bo'yicha esa nikoh yoshi erkaklar uchun 22, ayollar uchun esa 20 yosh qilib belgilangan. Nikoh yoshini qisqartirish Fransiya Respublikasida Prezidentning ruxsatiga asosan, Italiya, Belgiya Qirolligida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudlarining qarorlariga asosan amalga oshiriladi. Latviya Respublikasida esa nikohlanuvchi shaxslarning ota-onalari hamda vasiylik va homiylik organining roziligidagi asosan amalga oshiriladi. Milliy qonunchiligidan murojaat

² Эсанова З. Роль отдельных процессуальных институтов в судопроизводстве: на примере гражданских дел // Review of law sciences. – 2018. – №. 2. – С.24-28.

qiladigan bo‘lsak, nikoh yoshi yigitlar uchun ham qizlar uchun ham 18 yosh hisoblanadi. Qonunda belgilangan holatlarda nikoh yoshi 1 yilga qisqartirilishi mumkin³.

Bugungi davrda ilg‘or mamlakatlarda nikoh shartnomasi tuzish keng tarqalmoqda. Uning asosiy mazmuni nikoh tuzish tartibi, uning haqiqiy sanalish shartlari, nikohdan ajrashganda er-xotinning zararni undirish shartlari kabilar belgilanadi. Bulardan tashqari oilada mulkni kim boshqarishi ham shartnomada belgilanishi mumkin. Fransiyada erxotinning mulkni boshqarishida er ushbu mulkni boshqara oladi, lekin xotinning roziligesiz muhim shartnoma yoki bitimlarni tuza olmaydi. Argentina, Braziliya va Ispaniya kabi davatlarda mol-mulkni boshqarishda arning ro‘li birmuncha yuqoridir. G‘arb davlatlarining oila qonunchiligidagi nikoh shartnomasi masalasiga juda jiddiy qarashadi. Nikoh shartnomasi shartlarini bajarmaslik nikohni bekor qilishga, xatto ma`lum huquqiy javobgarlikka ham olib kelishi mumkin. O‘zbekistonda nikoh shartnomasi tuzish amaliyotga ko‘p uchramaydi. Asosan mulkiy munosabatlarni tartibga solish uchun qo‘llaniladi. O‘zbekiston respublikasiu Konstitutsiyasida ayol va erkak teng huquqliligi musthkamlab qo‘yilgan. Lekin amaliyotda davlat va jamiyat ishlarini amlaga oshirishda ayollar ulushi kamchilikni tashkil etadi. Shuni hisobga olgan holda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchilida gender tengligini ta’milazsh va ularni jamiyat sohalariga keng jalb etilmoqda⁴.

Bir qator Yevropa davlatlaridagi kabi nikoh shartnomasini O‘zbekiston Respublikasi oila qonunchiligi bilan o‘zgartirish yoki bekor qilish qonunchiligidimizga binoan nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtida o‘zgaritirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Uning o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi yozma shaklda tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligiga binoan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olingunga qadar tuzilgan bo‘lsa,

³ Паркинсон, Л. 25 лет спустя. Семейная медиация в Англии и Уэльсе / Л. Паркинсон // Медиация и право. Посредничество и примирение. 2018. № 3 (9). С. 165.

⁴ Besemer, Ch. (1997). Mediation — Vermittlung in Konflikten, Stiftung Gewaltfreies Leben, Werkstatt für Gewaltfreie Aktion [Медиация — посредничество в конфликте, утверждение свободной от насилия жизни, мастерская создания акций, освобождающих от насилия], Baden. 4. Auflage.

ushbu shartnoma nikoh davlat ro‘yxatiga olingan vaqtdan boshlab amalga kiradi. Nikoh shartnomasida er-xotinlar o‘zaro kelishgan holda o‘zlarining mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilab olishi mumkin. Unga binoan nikoh shartnomasida belgilab olingan har qanday mol-mulklar er-xotinlarning o‘zlariga tegishli bo‘lib hisoblanadi. Mulk huquqini vujudga kelishi esa ushbu shartnoma tuzilgan vaqtdan va notarial tartibda tasdiqlanganidan so‘ng paydo bo‘ladi. Yevropa davlatlarida mulkiy nizolarni kelib chiqshini oldini olish uchun nikoh shartnomasi tuzulib notarial tartibda tasdiqlab qo‘yiladi.

Dunyo mamlakatlarining nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi qonunchiligi tahlil qilingan holda, nikohdan ajratishda qo‘llaniladigan muddatlar, muddalarni qo‘llash asoslari, nikohdan ajratish tartibi aksariyat mamlakatlarda nikohdan ajratish ikki usulda sud va sudsiz tartibda amalga oshiriladi. Xususan, Janubiy Koreya va Yaponiyada taraflarning kelishuviga ko‘ra o‘zaro shartnoma tuzish yoki rasmiy hujjatni to‘ldirish yo‘li bilan nikohdan ajrashish tartibi kuzatsa, boshqa mamlakatlarda nikohdan ajratishning sudsiz usuli bu nikohni qayd qiluvchi oraganlar tomonidan nikohdan ajratish hisoblanadi¹¹⁰. So‘ngi vaqtarda O‘zbekistonda nikohdan ajrashishning sudsiz tartibi keng amaliyotga joriy etilmoqda. Ulardan biri mediatsiya tartibida nikohdan ajratish hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida 2019-yil 1-yanvardan boshlab mediatsiya instituti ishlay boshladи. Mediatsiya yordamida oilaviy nizolar ham ko‘rib hal qilinadi. Nikohdan ajralishning mazkur turida taraflar vositachi orqali nikohdan ajralish jarayonini olib borishadi. Nizolarni hal qilishning vositachilik usuli uzoq tarixdan boshlab amaliyotda mavjud bo‘lgan⁵.

Nikoh shartnomasini bekor qilinishi haqida fikr yuritadigan bo‘lsak MDH davlatlariga kiruvchi Rossiya qonunchiligi bilan nikoh shartnomasini bekor qilish asoslari agar nikoh shartnomasi bekor qilinmagan bo‘lsa, u nikoh tugatilgunga qadar amalda bo‘ladi. Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasida nikoh

⁵ Tojieva M. A. “Family Mediation: A new form of resolving family disputes” The American Journal of Political science law and Criminology (issn-2693-0803) for volume 03 issue 06 June, 2021.

tugatilganidan keyinga davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno bo‘ladi. Nikoh shartnomasi shunday huquq va majburiyatlarni belgilashi mumkinki, ular nikoh tugatilganidan so‘ng ham amalda bo‘ladi. Birinchi navbatda, bu nikoh tugatilgandan so‘ng er-xotindan bittasining moddiy ta`minlashga taalluqli bo‘lishidir. Qisqacha qilib, g‘arb davlatlari va O‘zbekiston Respublikasida nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish asoslari xususida to‘xtalib o‘tsak. Oila kodeksining 33-moddasiga binoan nikoh shartnomasi sud tomnidan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha to‘la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oila muhofazasini amlga oshirishda xalqaro tajribani milliy qonunchillik bilan uyg‘unlashtirgan holda jamiyat hayotiga tatbiq etish orqali mamlakatimizda oilani muhofaza qilishning mustahkam asosini yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Nikoh: milliy va xorijiy tajriba. Axborot-tahliliy material. – Toshkent, TDYuU nashryoti, 2019 yil. – 72 bet
2. Эсанова 3. Роль отдельных процессуальных институтов в судопроизводстве: на примере гражданских дел // Review of law sciences. – 2018. – №. 2. – С.24-28.
3. Паркинсон, Л. 25 лет спустя. Семейная медиация в Англии и Уэльсе / Л. Паркинсон // Медиация и право. Посредничество и примирение. 2018. № 3 (9). С. 16
4. Besemer, Ch. (1997). Mediation — Vermittlung in Konflikten, Stiftung Gewaltfreies Leben, Werkstatt für Gewaltfreie Aktion [Медиация — посредничество в конфликте, утверждение свободной от насилия жизни, мастерская создания акций, освобождающих от насилия], Baden. 4. Auflage.
5. Tojieva M. A. “Family Mediation: A new form of resolving family disputes” The American Journal of Political science law and Criminology (issn-2693-0803) for volume 03 Issue 06 June, 2021.